



BUXORO VILOYAT AHOLISI ORASIDA YURAK QON TOMIR KASALLIKLARI TARQALGANLIGI

Annotatsiya:

Asrimizning dolzarb muammolaridan biri yurak qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash va albatta kasalliklarni oldini olish chora tadbirlarini ishlab chiqish. Hozirgi vaqtida yurak-qon tomir kasalliklari (YQTK) – butun dunyo bo'ylab aholining o'limi va nogironligining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari insonning turmush tarzi va mavjud xavf omillari bilan uzbek bog'liq. Ko'pgina xavf omillari turmush tarzini o'zgartirish orqali nazorat qilinsa, ayrimlari (arterial gipertoniya, dislipidemiya va qand miqdori) medikamentoz yo'li bilan korreksiya qilinadi.

Kalit so'zlar:

Yurak qon tomir kasalliklari, yurak, semizlik, miokard infarkti, insult, gipertoniya, chekish.

Information about the authors***O'ktamova Ruxsora O'tkirjon qizi***

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti oilaviy tibbiyotda ichki kasalliklar kafedrasi asisstanti

Hozirgi vaqtida yurak qon tomir kasalliklar butun dunyo bo'ylab aholining o'limi va nogironligining asosiy sabablaridan biri bo'lib kelmoqda. JSST hisob-kitoblariga ko'ra, 2016-yilda 17,9 million kishi yurak-qon tomir kasalliklaridan vafot etgan, bu butun dunyo bo'ylab o'lim holatlarining 31 foizini tashkil qilgan. Ushbu o'limlarning 85% MI va insult tufayli sodir bo'lgan. YQTKdan o'limning 75% dan ortig'i past va o'rta daromadli mamlakatlarda, erkaklar va ayollar orasida deyarli tengdir. 70 yoshgacha bo'lgan yuqumli bo'limgan kasalliklardan o'lgan 17 million o'limning 82 foizi past va o'rta daromadli mamlakatlarda sodir bo'ladi va ularning 37 foizi yurak-qon tomir kasalliklaridan kelib chiqadi. {1}

Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlashning dolzarb muammolaridan biridir. Davlat statistika qo'mitasi xabariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 2019 yilning yanvar-iyun oylarida vafot etgan fuqarolarning 62,1 foizi holatda aynan qon aylanish tizimi kasalliklari sabab qilib ko'rsatilgan. {2}

Bu ko'rsatkichkar bu sohada yanada yangi kompleks davo rejalaridan tashqari profilaktik chora tadbirlarini kuchaytirishimiz kerakligini ko'rsatadi. Davlat rahbarimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yildan 40 yoshdan o'tgan fuqarolar yiliga kamida 1 marta manzilli skriningdan o'tkazilishini ma'lum qilib, yurak-qon tomir kasalliklari sohasiga alohida to'xtalib o'tgandilar. {3}

Yurak kasalliklari (yurak xastaliklari) — yurakning normal faoliyati buzilishi bilan namoyon bo'ladigan yurak-tomir tizimiga oid patologiyalar guruhi. Bunday kasalliklar epikard, perikard, miokard, endokard, yurakning klapan apparati va qon tomirlari shikastlanishlari tufayli yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Yurak kasalliklari uzoq vaqt davomida yashirin shaklda, klinik tasvirsiz kechishi mumkin. Turli xil o'smalar bilan bir qatorda, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda erta o'limning asosiy sababchilaridan biri hisoblanadi. Framingem yurak, o'pka va qon Milliy instituti (AQSh) tadqiqotlariga ko'ra, odamlarda yurak-tomir kasalliklari rivojlanishida eng muhim omillar semizlik, kamharakat turmush tarzi va chekish sanaladi. {4}

Bundan tashqari yana bir qancha yurak qon tomir kasalliklariga olib keladigan omillar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:



- Yoshi
- Irsiyat
- Alkogolizm.
- Stress.
- Xolesterinning yuqori darajasi.
- Uyqu yetishmasligi va haddan tashqari charchash.
- Gipodinamiya.
- Noqulay ekologiya.
- Muvozanatsiz ovqatlanish: Tuz va yog'larni ortiqcha iste'mol qilish.

Buxoro viloyat aholisi orasida yurak qon tomir kasalliklarining xatar omillari chastotasi bemorlarning jinsi va ulardagi xatar omillarining umumiyligi soniga ko'ra taxlil qilamiz. Tadqiqot ob'ekti 25-69 yoshdagisi, aterosklerozning klinik belgilari bo'lмаган 382 nafar bemorga asoslangan. 382 bemor tekshirildi: 33,2% (127 ta) erkaklar va 66,8% (255 ta) ayollar ($p < 0,0001$). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tekshirilgan bemorlarning 73,8% erkaklarda (90 ta) va 5,1% (13 ta) ayollarda chekish aniqlangan. Ortiqcha vazn/semizlik va AH taxminan teng qismlarda, mos ravishda 55,1% (70 ta) va 51,9% (66 ta) erkaklarda va 54,1% (138 ta) va 56,1% (143 ta) ayollarda aniqlangan. Natijalar ko'rsatishicha har ikkinchi ayol va erkak gipertoniya va semizlik ortiqcha vazn bilan xasta ekanligi aniqlangan. Buxoro viloyat aholisi orasida 86,2% erkaklar va 44,9% ayollarda 3 va undan ortiq xatar omillarining bir vaqtida uchrashi aniqlandi.

Hozirgi kunda barcha davlatlarda yurak qon tomir kasalliklar sababli kelib chiqadigan aholining o'lim va nogironlik ko'rsatkichini kamaytirish uchun choralar ishlab chiqilmoqda, chunki aholining mehnatga layoqatlari bo'lgan kerakli kadrlar o'rtaida bu kasalliklar ko'p uchramoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.03.2017 yil No PQ-2857 ga binoan shahardan uzoqda joylashgan qishloq aholisida kasalliklarga erta tashxis qo'yish va surunkali kasalliklarni oldini olish maqsadida profilaktik tekshiruvlarni olib borish uchun klinik biokimyoviy va instrumental (EKG, UTT va b) laboratoriyalarni tashkil etish topshirig'I berilgan. Yurak-qon tomir kasalliklariga qarshi davlat miqiyosida kurashish uchun quyidagi chora tadbirlarni ko'rshimiz kerak:

- 1.Yurak qon tomir tizimi kasalliklarini kelib chqaradigan xavf omillariga qarshi kurashib birlamchi profilaktikani kuchaytirish.
- 2.Sog'liqni saqlash tizimidagi birlamchi bo'g'inlarida profilaktik chora tadbirlar o'tkazish va dori-darmonlar bilan ta'minlash.
- 3.Sog'liqni saqlash tizimidagi birlamchi bo'g'inlarida zamonaviy diagnostika va davolash texnik bazasini moddiy ta'minlash.
- 4.Aholiga birinchi tez tibbiy yordam ko'rsatish sifatini va qamrab olingan aholi hajmini oshirish.
- 5.Aholiga xizmat qilayotgan tibbiy xodimlarni malakasini oshirish.
- 6.Respublikaning barcha hududlarida Kardioxirurgik davolash maqsadida kardiologiya markazlarini tashkil etish
- 7.Tibbiyotda zamonaviy IT-sohasini yutuqlaridan foydalangan holatda masofaviy malakali tibbiy maslahatlarni olishni (telemedisina) tashkil etish. Shu chora tadbirlarni bajarish orqali o'zbekistonda yurak-qon tomir va boshqa kasalliklardan kelib chiqadigan o'lim va nogironlik holatlarini kamaytirishga erishamiz. Hozirgi kunda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan kasallangan bolalar va katta yoshli bemorlarning 20% i o'lim holati va 80% nogironlik holati bilan yakunllanadi {5}



Xulosa.

Yurak qon tomir kasalliklari hozirgi kunda dolzarb kasalliklar guruhiga kiradi. Bu kasalliklardan o'lim ko'rsatkichi yildan yilga oshmoqda. Bu kasalliklarni hozirgi kunda davolashdan ko'ra oldini olish va kompleks chora tadbirlar ishlab chiqarish muhim o'rinn egallamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wikipediya -yurak qon tomir kasalliklari.
2. Abdullayeva N.M, Xodiyeva M. A – “Yurak qon tomir tizimi kasalliklarida zamonaviy reabilitatsiya usullari”
3. Hojiyev Sh.Sh, O'ktamova R. O' - “Qandli diabet kasalligi yurak qon tomir kasalliklari bilan birga kelishi” - Modern education and development
4. Ro'ziboyeva M.G', Karimov M. I, Ulashova D. A - “Yurak qon tomir kasalliklarining turlari, kelib chiqishi, davolash usullari va bugungi kundagi dolzarbliji” - O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali 12-son 19.10.2022
5. Majidov Sh.X, Abuov A. A – “ O'zbekistonda yurak-qon tomir kasalliklari tarqalishi va hozirgi kundagi tendensiyasi” - Models and methods for increasing the efficiency of innovative research